

Date: 29th January-2026

**IMKONIYATI CHEKLANGAN O'QUVCHILARNI KASB-HUNAR EGALLASHI
VA JAMIYATDA O'Z O'RNINI TOPISHI**

Sultanova Aziza Akmalovna

Respublika imkoniyati cheklangan shaxslar uchun

Ixtisoslashtirilgan maxsus texnikum

Ishlab chiqarish ta'limi ustasi

Annotatsiya: Imkoniyati cheklangan shaxslar ham boshqa insonlar kabi o'qishlari, kasb-hunar egallashlari, ishlay olishlari jamiyatda o'z o'rnini topishlari juda muhim. Ular o'z qobiliyatlari namoyon qilishlari uchun e'tibor va o'ziga bo'lgan ishonch talab qilinadi. Ularning jamiyatda o'z o'rnini topishi, ya'ni barcha bilan birga yashashi uchun, jamiyatdagi insonlarning e'tibori va g'amho'rliqi juda muhim. Biz bu masalani maqolamizda batafsil muhokama qildik.

Kalit so'zlar: Imkoniyati cheklangan o'quvchilar, kasb-hunar egallashi, intellektual sohalar, korxonalar, inklyuziv ta'lim.

Imkoniyati cheklangan o'quvchilarni kasb-hunarga o'rgatish va ularning jamiyatda o'z o'rnini topishni ta'minlash – bugungi kunda O'zbekiston ijtimoiy siyosatining eng muhim yo'nalishlaridan biridir. Bu jarayonni amalga oshirishda birnecha imkoniyatlardan foydalanishimiz mumkin.

- Kasbga yo'naltirish va inklyuziv ta'lim – o'quvchilarni maktab davridayoq qiziqishlari va jismoniy imkoniyatlaridan kelib chiqib kasbga yo'naltirish lozim. Bugungi kunda ko'plab kasbga yo'naltirilgan ixtisoslashtirilgan maxsus texnikumlar mavjud. Shu qatorda bizning Respublika imkoniyati cheklangan shaxslar uchun ixtisoslashtirilgan maxsus texnikumda kasb-hunarga yo'naltirilgan har xil yo'nalishlar mavjud. Bulardan teleradioappaturalarni ta'mirlash, poyabzal ishlari, apparat va dasturiy ta'minot sozlovchisi, tikuvchilik, to'quvchilik, maishiy texnika jihozlarini ta'mirlash, bog' istirohat va landshaft qurilishi yo'nalishlari bor. O'quvchilar bu yo'nalishlarda tahsil olib, o'z hunarlarini puxta egallab, oliygohlarga kirib yuqori marralarga erishib kelmoqdalar.

- Imkoniyati cheklangan o'quvchilarga yana bir necha xalq hunarmandchiligi – kulolchilik, zargarlik, rassomchilik, bo'yash va naqqoshlik hunarlari mavjud.

- Imkoniyati cheklangan o'quvchilar uchun hozirgi kunda intellektual sohalar ham mavjud: tarjimonlik, kopirayting, repetitorlik sohalar ham rivojlanib kelmoqda.

O'quvchilar bu sohalarni ham imkoniyatlaridan kelib chiqib o'rganib jamiyatda o'z o'rinlarini topishlari mumkun.

- IT va raqamli texnologiyalar: bu soha ham hozirgi kunda eng rivojlangan kasblardan bo'lib bularga - dasturlash, grafik dizayn, SMM, ma'lumotlarni tahlil qilish kasblaridir. Bu sohalarni imkoniyati cheklangan o'quvchilarga afzallik taraflari masofadan ishlash imkonini beradi.



Date: 29th January-2026

- Imkoniyati cheklangan o'quvchilarimiz shu sohalarni puxta egallasb o'z iqtidorlarini namoyon qilib Davlat tomonidan berilayotgan imtiyozlardan foydalanishlari mumkun:

2026-yilga kelib O'zbekistonda ushbu qatlamni qo'llab-quvvatlash bo'yicha tizimli ishlar yanada kengaygan:

-Kvotalar: Korxona va tashkilotlarda xodimlar sonining kamida 3 foizi miqdorida nogironligi bo'lgan shaxslarni ishga olgan tadbirkorlar uchun ijtimoiy soliq va boshqa to'lovlarda yangiliklar mavjud.

-Subsidiya va grandlar: O'z tadbirkorligini boshlamoqchi bo'lgan imkoniyati cheklangan yoshlarga asbob-uskunalar sotib olish uchun davlat grandlari ajratiladi.

Jamiyatda o'z o'rnini topishda – faqat kasb o'rgatish kifoya emas, ularning jamiyatga moslashishi uchun quyidagilar muhim:

- Psixologik qo'llab quvvatlash – o'quvchilarda o'ziga bo'lgan ishonchni shakllantirish va “men ham jamiyatning to'laqonli a'zosiman” degan tushunchani mustahkamlash.

- Jamoatchilik munosabati – jamiyatda nogironligi bo'lgan shaxslarga “teng huquqli hamkor” sifatida qarash madaniyatni yuksaltirishdir.

- To'siqsiz muhit – jamoat transporti, binolar va ish joylarining maxsua moslamalar bilan jihozlanishi jamiyatga moslasha olishligi uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

Xulosa o'rnida shuni aytishimiz mumkun – imkoniyati cheklangan o'quvchining kasb egallashi uning nafaqat iqtisodiy mustaqilligini, balki ma'naviy erkinligini ham ta'minlaydi. Ularning muvaffaqiyatli jamiyatning qay darajada insonparvar ekanligini belgilovchi asosiy ko'rsatkichdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. I Madatov “Inklyuziv ta'lim” 2024
2. X.X.Maqsudova. “Barkamol insonni shakllantirishda ijtimoiy-iqtisodiy omillarning o'rne va roli.”
3. N.A,Muslimov “Kasb tanlashga yo'llash” 2025
4. Vazirlar Mahkamasining 78-sonli qarori
5. Me'yoriy-huquqiy va uslubiy manbalar
6. Internet manbalari.
7. <https://www.samdu.uz/uz/news/>

